E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

IBORALARNING O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA IFODALANISHI HAMDA FARQLANISHI

Imomova Ozoda Shuhrat qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

phonesdayigirmauch@gmail.com

Alimardanova Shahnoza Mardoy qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

shahnozaalimardanova11@gmail.com

Ismoilova Dildora Qurbonmurod qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

dildoraismoilova810@gmail.com

ANNOTATSIYA

Frazeologizmlarning o'zbek va rus tillaridagi ahamiyati hamda ma'no nozikliklari.

KALIT SO‘ZLAR

Ibora,frazeologiya,o'zbek tili,rus tili.

O'zbek tilida iboralarning ahamiyati,qo'llanish doirasi keng.Frazeologiya so'zni jozibador va ta'sirchan qilib ifodalaydi. Ibora arabcha so'zdan olingan bo'lib,biror bir tushuncha yoki gapning bir so'z bilan ifodalanishiga aytiladi.Iboralar xalqning tilini balki,urf-odatlarini,madaniyatini ko'rsatib beradigan oynadir.Bu haqda tishunos A.Mamatov ta'kidlaganidek "u yoki bu xalqning yashayotgan joyining tabiati,iqtisodiy tizimi,tarixi,madaniyati,hayot tarzi,og'zaki ijodiyoti,badiiy adabiyoti,san'ati, fani,urf-odati,dini kabilar bilan bog'lanadi."

Iboralarni o'rganadigan soha frazeologizmlardir.Frazeologizmlar nafaqat o'zbek tilida rus tilida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan.Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potelnya,I.I.Sreznevskiy,A.A.Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa,barqaror(turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi-Frazeologiyada o'rganish masalasi 20-40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda Ye.D.Polivanov,S.Abakumov,L.A.Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan.

G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi. O'zbek va rus tillarida frazeologiya alohida bo'lim ya'ni soha sifatida o'rganiladi.O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan.Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan.O'rgangan olimlardan Sh.Rahmatullayev,A.Mamatov va boshqalardir.Frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan.Bu lug'atlarni tuzishga Sh.Rahmatullayev,M.Sodiqovalar o'z hissasini qo'shgan.Yozuvchilardan

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

A.Qodiriy,A.Qahhor,H.Olimjon,Oydin,S.Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan.70-80-yillarda Samarqand Davlat Universiteti qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan. Tilshunoslikda o'zbekcha-ruscha,ruscha-o'zbekcha frazeologizmlar mavjud. O'zbek tilida yozilgan iboralarning ma'nosi,rus tilida boshqacha ma'noda,rus tilidagi iboralar o'zbek tilida boshqacha ma'noda anglashiladi.O'zbek va rus tillaridagi iboralarning ma'no nozikliklarini ko'rib chiqamiz.

Rus tilidagi iboralar:

1) в двух шагах(близко)

(Ikki qadam ya'ni yaqin degan ma'noda)

2)за тридевять земель(далеко)

(Uzoq degan ma'noda

3)кот наплакал(мало)

(Juda oz degan ma'noda,dengizdan tomchi)chunki rus millatidagi insonlar mushuklarni yoqtiradi,ularning mushuklari osonlikcha yig'lamaydi,aslida mushuklar yig'lamaydi,shuning uchun ham bu ibora juda oz degan ma'noda qo'llanadi.

4)как рыба в воде(хороша)

(O'zini baliqdek erkin his qilmoq)

5)зимой снега не выпросшие(очен жадный)-xasis degan ma'noda.Bu ibora o'zbek tilidagi quyidagi iboraga tengdir. Qishda qor so'rasang ham bermaydi degan frazeologizmga tengdir.

6)бить баклуши(бездельничать)

(Bekorxo'ja bo'lib yalla qilib yurmoq)

O'zbekcha varianti:(yulduz sanamoq)

7)бежать сломя голову(быстро)

(Ish-harakatni tez bajarmoq)o'zbekcha varianti:Oyog'ini qo'liga olib yugurmoq

8)бежать лапшу на уши(Qulog'iga lag'mon ilmoq-aldamoq)

9)льёт как из ведра (Satillab quymoq)

10)как курица лапой(xo'roz yozgandek) o'zbekcha varianti:chumoli yozgandek.

O'zbek tilidagi iboralarni ko'rib chiqamiz.

1)kek saqlamoq-затаить злобу;питать затаённую злобу(arazlamoq)

2)Kapalagi uchdi-он сильно испугался,он перепугался(qo'rqmoq degan ma'noni anglatadi)

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

3)Mayna bo'lmoq ,masxara bo'lmoq-быть посмешищем быть игрушкой(kulguga qolmoq,noqulay ahvolga tushmoq)

4)Tuyog'ingni shiqillat-загреми своими копытами(tezroq ket degan ma'noda ishlatiladi

5)Yuragini yozmoq-угнетать,мучить,терзать(dardini aytmoq,erkin bo'lib gapirmoq)

Frazeologizmlar o'zbek va rus tillarida ma'no nozikliklarga hamda farq-tafovutlarga ega ekanligini ko'rib chiqdik. Iboralar o'zbek va rus tilshunosligida alohida ahamiyatga ega soha ekanligiga amin bo'ldik.Frazeologizmlar leksemalarning emotsional-ekspressiv bo'yoqdor bo'lishiga hamda so'zni tinglovchiga yanada kuchliroq yetkazish maqsadida qo'llanadi.Rus tili so'zga boyligi bilan ham boshqa tillardan ajralib turadi. Bu xususiyatlarini iboralarida ham ko'rishimiz mumkin.O'zbek tili ham rus tilidan kam bo'lmagan tildir.Uning ham iboralari ma'no nozikliklarga jozibadorlikka egadir. Har ikkala tilshunoslikda ham frazeologizmlarning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Краткий узбекско русский фразеологический словарь

Главная редакция узбекской советекой енциклопедии Ташкент-1989

135-136-странитца.

2. Киссен И.А. Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского

языков. – Т., 1979.

3. Reshetov V.V., Reshetova L.V. Rus tili grammatikasi. – Toshkent: «O‘qituvchi»,

1968.

4. Субботина Людмила Анатолиевна “ Фразеологический словарь русского языка”

WORDLY KNOWLEDGE